



Koreya Milliy
Politsiya Agentligi



Chet elliklar uchun jinoyatni oldini olish bo'yicha yo'riqnoma



Koreya Milliy
Politsiya Agentligi



Mundarija

Bilmasdan sodir etilishi oson bo'lgan jinoyatlar	02
Kundalik hayotda jinoyatlarni oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha ko'rsatmalar	05
Jinoyatni xabar berish bo'yicha ko'rsatmalar	09
Yordam olish bo'yicha telefon raqamlar	13
Koreyada istiqomat qiladigan chet elliklarni qo'llab-quvvatlash islohoti	15

Bilmasdan sodir etilishi oson bo'lgan jinoyatlar



01 O'zi bilan odamning hayoti yoki tanasiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan pichoq, temir tayoq, arra kabi qurollarni sababsiz olib yurish ta'qiqlanadi.

- Biror kishiga zo'rvonlik qilish, shikast yetkazish, tutqunlikga olish, majburlash, tahdid qilish va hokazo maqsadlarda qurol olib yurilsa yanada kuchli jazo qo'llaniladi.
- Ijtimoiy tarmoqlar orqali qurol bilan tahdid qilish holatida ham jazo qo'llaniladi.

02 Giyohvand moddalarni saqlash, iste'mol qilish va kontrabandasi uchun qattiq jazo qo'llaniladi va deportatsiya qilinadi.

- Giyohvand moddalar deb psixotrop dorilar va marixuana kabilarga aytiladi.
- Koreya Milliy Politsiya Agentligi giyohvand moddalarni noqonuniy yetkazib berish bo'yicha jinoyatchilar, giyohvand moddalari bilan shug'ullanuvchi chet elliklar, internet(darkweb), ijtimoiy tarmoq kabilar orqali giyohvand moddalarni tarqatuvchi jinoyatchilar bo'yicha juda qattiq kuzatuv ishlarini amalga oshirib kelmoqda.
- Xususan, xalqaro pochta va posilkalar orqali giyohvand moddalarni mamlakatga noqonuniy olib kirgan va ularni tarqatgan holatda qattiq jazo qo'llaniladi.

03 Qonunga muvofiq bo'lmagan holda moliyaviy foyda uchun qimor o'ynash qimor faoliyatiga oid bo'lib jazo qo'llaniladi.

- Shu bilan birga qimor uchun joy bilan ta'minlash kabilar ham qimor faoliyatiga oid bo'lib qattiq jazo qo'llaniladi.

04 Noqonuniy suratga olish, jinsiy aloqaga oid material va shu kabilarni tarqatganlik uchun ham qattiq jazo qo'llaniladi.

- Jismoniy aloqa bo'lmasa ham 1) telefon va internet orqali jinsiy kamsituvchi so'zlar, qabih so'zlar va fotosyomkalarini yuborish xarakati, 2) begona shaxsning roziligisiz uni(badanini) fotosyomka qilish va tarqatish xarakati, 3) noqonuniy fotomateriallarga egalik qilish, sotib olish, saqlash va tomosha qilish jinoyat hisoblanadi.

05 Boshqa shaxs va uning oila a'zolarining xohishiga zid va sababsiz holda yaqinlashish, axborot kommunikatsiyalari orqali qo'rquv va xavotir uyg'otish ta'qib qilish(stalking)ga kiradi va qattiq jazo qo'llaniladi.

06 Egasi noma'lum ko'chada turgan velosiped kabilar olib ketilgan holatda o'g'irlik yoki bironvi mulkini ko'r-ko'rona o'zlashtirgan deb topilib jazo qo'llanilishi mumkin.

07 Moliyaviy muassasalar orqali emas, balki jismoniy shaxslar o'rtasidagi operatsiyalar orqali xorijga pul o'tkazilgan holatda "Valyuta operatsiyalari to'g'risida" gi qonunni buzganlik uchun qattiq jazo qo'llaniladi.

08 17 yoshdan oshgan chet elliklar har doim o'zlari bilan pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi xujjatni olib yurishlari shart bo'lib, bunga amal qilinmagan taqdirda jarima (1million wondan kam) belgilanadi.

- agar kimki boshqa shaxsning shaxsiy guvohnomasidan foydalansa yoki o'z shaxsini yolg'on gapirishga urinsa, yolg'on ma'lumot berish orqali rasmiy vazifalarni bajarishga to'sqinlik qilingani uchun jazolanishi mumkin.


09 Agar haydovchilik guvohnomasi olinmasdan avtomobil, mototsikl, elektr-samokat kabilar boshqarilsa, guvohnomasiz boshqarilganlik uchun jazo qo'llaniladi.

- avtomobil boshqaruv paytida xavfsizlik kamari yoki xavfsizlik shlemi taqilmagan holatda ham jarima belgilanadi.
- elektr-samokati ikki kishidan ortiq minilgan holatda jarima belgilanadi.
- spirtli ichimlik ichgan holda avto transport boshqarilsa jazo qo'llaniladi.
- avto transporti qonuniy ravishda o'z nomiga ro'yxatdan o'tkazilmagan holda boshqarilsa jazo qo'llaniladi.

10 Oddiy tartib qoidalarini buzganlik holatda ham jarima qo'llanilishi mumkin bo'lgani uchun ogohlik talab qilinadi.

- sigaret qoldig'i, saqich va axlat kabilarni duch kelgan joyga tashlash mumkin emas.
- jamoat joylarida beparvolik bilan tupurish yoki chekish taqiqlangan joylarda chekish mumkin emas.
- yo'lni kesib o'tirish paytida piyodalar ko'prigi yoki piyodalar o'tish joyidan svetoforni chirog'i yashil yonganda o'tish lozim.
- hech qanday sababsiz yo'lni to'sib qo'yish, janjallashish, to'planish, bironvi kuzatib yurish kabi odamlarni tashvishga soladigan yoki ularda nafrat uyg'otadigan xarakatlarni qilish taqiqlanadi.

Kundalik hayotda jinoyatlarni oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha ko'rsatmalar



01 Fribgarlik (noqonuniy tijorat, telefon orqali moliyaviy fribgarlik, SMS orqali fribgarlik (smishing), internet fribgarligi va boshqalar)

- Telefon orqali moliyaviy fribgarlik | Bu tergov organlari yoki moliya muassasalaridan deb o'zlarini tanishtirish orqali birovni pulini aldab olish kabi moliyaviy fribgarlikdir.

- Sizdan bank o'tkazmasi, naqd pul yetkazib berish, bank karta yoki ID-karta kabi shaxsiy ma'lumotlar talab qilinsa umuman javob bermaslik so'raladi.
- Agar sizga jabr yetganda darhol politsiyaga xabar bersangiz ular moliya muassasasiga bog'lanib sizning hisob raqamingizni to'xtatib qo'yishga yordam beradi.
- Fribgarlik guruhi ostida naqd pul yechish, bog'lanuvchi va telemarketingchi sifatida ishtirok etish ham jinoyatga sherikchilik hisoblanib jazo qo'llaniladi.

Ovozli baliq ovidan jabrlanish holatlari

- Oila a'zosi (farzand)ni qo'ng'iroqqa javob bera olmaydigan holatga keltirish va o'g'irlab ketganlik haqida xabar berib pul talab qilish.
- Prokratura yoki politsiya kabi tergov organlaridan deb o'zlarini tanishtirib jinoyatga aloqadorlik bahonasida shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish orqali pul talab qilish.
- Moliya muassasalari nomidan bog'lanib kredit ochib berish bahonasida eski kreditga oid foizlarni to'lash kabilar uchun pul talab qilish.
- Bank yoki telekommunikatsiya xodimi nomidan bog'lanib muddati o'tkan to'lovni olish bahonasida pul talab qilish.

- SMS orqali fribgarlik (smishing) | Bu zararli ilovani o'z ichiga olgan sms xabar (electron pochta va h.k.) ni jo'natib foydalanuvchini shu ilovani yuklashga olib borib shaxsiy ma'lumotlarni o'zlashtiradigan jinoyatdir.

- tanishingizdan kelgan xabar bo'lsada, unda internet ilovasi bo'lgan taqdirda, unga kirishdan oldin tekshirib, mobil quilmada himoya sozlamalarini kuchaytirgan holda jabrlanishni oldini olish kerak.

- Internet trade fraud | Bu mahsulot uchun pul to'langanda, lekin mahsulotni yubormay yoki butunlay boshqa mahsulotni yuborish yo'li bilan qilinadigan jinoyatdir.

- Internet orqali savdo qilganda, xavfsiz savdo saytlardan foydalanish va to'lov qilish oldidan boshqa tomonning ma'lumotlari (telefon va hisob raqami)ni tekshirish kerak.
- Koreya Milliy Politsiya Agentligi (www.police.go.kr) yoki CyberCop (mobil ilova) orqali internet fribgarlik haqida ma'lumot olish yoki jabr ko'rganlik haqida ariza berishingiz mumkin

- Noqonuniy tijorat | Bu belgilangan ulgurji, chakana va yetkazib berish tijorat qoidalariga rioya qilmasdan iste'molchining o'zi to'g'ridan-to'g'ri sotuvchi sifatida harakat qilishidir.

- Agar korxonaga qisqa vaqt ichida katta daromad olish maqsadida mijozlar yoki investorlarni jalb qilib pul yig'ish, majburiy xarid qilish yoki kredit berishga undasa, yoki mahsulotni yuqori sifatli deb xabar berib, bo'rttirib reklama qilsa va uni yuqori narxda sotsa mahsulotni sotib olish va korxonaga a'zo bo'lishni rad eting.

Korxonaning qonuniy ro'yxatdan o'tganligi haqida ma'lumotni tekshirish

- | | |
|---|---|
| - Adolatli savdo qo'mitasi | www.ftc.go.kr , 1670-0007 (pullik) |
| - Bevosita savdo - o'zaro yordam uyushmasi | www.macco.or.kr , 02-566-1202 |
| - Koreya maxsus savdo - o'zaro yordam uyushmasi | www.kossa.or.kr , 02-2058-0831~8 |

02 Oilaviy muhitda zo'ravonlik

- Oilaviy muhitda zo'ravonlik | Bu er-xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va birga yashaydigan oila a'zolari boshqa oila a'zosiga qasddan jismoniy kuch ishlatish yoki ruhiy zo'ravonlik orqali jabr berish harakatini anglatadi.

- Oilaviy zo'ravonlikdan jabr ko'rsangiz, hech ikkilanmay vaziyat haqida qarindoshlaringizga, qo'shnilaringizga va do'stlaringizga, shu jumladan politsiyaga xabar bering va yordam so'rang.

※ Fotosuratlar va tibbiy ma'lumotlar kabi zo'ravonlik dalillarini yig'ib ayollar jamiyati va shu kabi oilaviy zo'ravonlik bo'yicha ixtisoslashgan yordam markazlariga murojaat qiling. (Ayollar uchun favqulodda yordam telefon raqami. 1366 / Danuri xizmat ko'rsatish markazi. 1577-1366)

03 Jinsiy zo'ravonlik

- Jinsiy zo'ravonlik | Bu boshqa shaxsning xohishiga qarshi sodir etilgan barcha jinsiy harakatlar, shu jumladan jismoniy, og'zaki va hissiy zo'ravonlikni o'z ichiga olgan keng tushunchadir.

- Jinsiy zo'ravonlikdan jabr cheksangiz, darhol 112 raqamiga xabar bering. (Xabar berishdan oldin yuvinmasdan kiygan ichki kiyim va boshqa kiyimlaringizni saqlasangiz jinoyatchini qo'lga olishda xizmat ko'rsatadi.)
- Atrofigizda jinsiy zo'ravonlikga uchraganlar bo'lsa, ularning gapiga quloq solib, albatta politsiyaga xabar bering.
- Politsiyadan tashqari "Ayollar uchun favqulodda yordam telefon raqami (1366)", "Danuri xizmat ko'rsatish markazi (1577-1366)" dan ham yordam olishingiz mumkin.

- Raqamli jinsiy jinoyat | Bu shahvoniy ehtiros yoki sharmandalikka olib keladigan biror bir shaxsning badanini yashirincha suratga olish, tahdid qilish yoki majburlash orqali suratga olish, uning roziligisiz materiallarni tarqatish va ulashish harakatini o'z ichiga oladi.

- Raqamli jinsiy jinoyatdan jabr ko'rsangiz, dalillarni o'chirmasdan ularni saqlab, jabrlanish faktlari bilan birga tezda politsiyaga xabar bering.

Kundalik hayotda jinoyatlarni oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha ko'rsatmalar

04 Ishqiy munosabatda zo'ravonlik

-Ishqiy munosabatda zo'ravonlik | Bu ishqiy munosabatda bo'lganlar o'rtasida yuzaga keladigan jismoniy va ruhiy zo'ravonlikdir.

· Ishqiy munosabat paytida zo'ravonlikdan jabr ko'rsangiz, vaziyat haqida hech ikkilanmay qarindoshlaringizga, qo'shnilaringizga va do'stlaringizga, shu jumladan politsiyaga xabar berib yordam so'rang.

05 Maktabdagi zo'ravonlik

-Maktabdagi zo'ravonlik | Bu maktab ichi yoki tashqarisida o'quvchilar o'zaro zo'ravonlik qilish, tahdid qilish, qo'rqitish va hokazolar orqali jismoniy ruhiy yoki mulkiy zararni yetkazishdir.

· Agar siz maktabda zo'ravonlikdan jabr ko'rsangiz, hech ikkilanmay darhol o'qituvchingizga, ota-onangizga va politsiyaga xabar bering.
· Imkon qadar odamlar ko'p yurmaydigan joylardan va yo'laklardan yurmaslikga xarakat qiling. Agar siz pulingiz va qimmatbaho buyum kabilaringizni oldirib qo'yib jabr ko'rsangiz, zudlik bilan politsiyaga xabar bering.

06 Bolalar yo'qolishini oldini olish


-Yo'qolgan bolalar | Bu o'g'irlanish, tashlab ketilish, baxtsiz hodisaga duch kelish, uydan qochish yoki adashib qolish kabi sabablarga ko'ra o'z himoyachisidan ajralib qolgan va yo'qolgan vaqti 18yoshga to'lmagan bolalardir.

· Agar notanish odam o'zini tanigandek ko'rsatib olib ketmoqchi bo'lsa yoki kuch ishlatgan holda olib ketmoqchi bo'lsa, qichqirish va yon atrofdan yordam so'rash kerak deb o'rgatish lozim.
· Farzandingizga uning ismini, yoshini, manzillini, telefon raqami va ota-onasining ismlarini eslab qolishni o'rgatishga harakat qiling. Tashqariga chiqayotganda qanday kiyim kiyganini eslab qolish kerak.
· Xususan, barmoq izlari kabi oldindan ro'yxatga olish tizimidan foydalangan holda, farzandingizning jismoniy xususiyatlarini yaqin bo'lgan politsiya mahkamasida qayt etish mumkin.

Jinoyatni xabar berish bo'yicha ko'rsatmalar



01 Jinoyat guvohi bo'lgan yoki jinoyatdan jabr ko'rgan holatda 112 raqamiga qo'ng'iroq qilib politsiyadan tezkor yordam olish mumkin.



02 Koreys tilini yaxshi bilmaydigan chet elliklar uchun jinoyat (jabrlanish) haqida xabar berish va shikoyat paytida tarjima xizmatlari taqdim qilinib kelmoqda.

- Jinoyat guvohi bo'lgan yoki jinoyatdan jabr ko'rgan holatda, 112 raqamiga xabar berib yoki voqea joyiga jo'natilgan politsiya xodimidan tarjimon xizmati so'ralsa tezkor holatda yordam olish mumkin.

Tarjimonlik muassasasi	Batafsil ma'lumot
Koreya Milliy Politsiya Agentligi 112 tarjima	<ul style="list-style-type: none"> · Ma'sul bo'lim : Koreya Milliy Politsiya Agentligi · Ish vaqti : 3 tomonlama qo'ng'iroq mavjud/ Hafta kunlari: 09:00-21:00, ingliz tili(02-6150-1101), xitoy tili(02-6150-1102) · Tarjima tili : Ingliz tili, xitoy tili (2ta til)
Turistlariga tarjimali ma'lumot raqami (1330)	<ul style="list-style-type: none"> · Ma'sul bo'lim : Koreya turizm tashkiloti · Ish vaqti : 3 tomonlama qo'ng'iroq mavjud/ 24soat ingliz-xitoy-yapon tillari/ qo'shimcha 5ta til 08:00-19:00 (365kun) · Tarjima tili : ingliz,xitoy,yapon,rus,vietnam, tay, malayziya, indoneziya tillari (8ta til)
Danuri xizmat ko'rsatish markazi (1577-1366)	<ul style="list-style-type: none"> · Ma'sul bo'lim : Gender tengligi va oila vazirligi · Ish vaqti : 3 tomonlama qo'ng'iroq mavjud/ 24 soat ingliz, xitoy, vietnam, filippin tillari/ qo'shimcha 9ta til 08:00-21:00 (365kun) · Tarjima tili : Ingliz, xitoy, yapon, rus, vietnam, tay, mongol, filippin, kambodja, o'zbek, laos, nepal tillari (12ta til)
Chet elliklar uchun umumiy ma'lumot markazi (1345)	<ul style="list-style-type: none"> · Ma'sul bo'lim : Adliya vazirligining immigratsiya va chet elliklar siyosati bo'yicha asosiy boshqaruv shtabi · Ish vaqti : 3 tomonlama qo'ng'iroq mavjud/ ingliz, xitoy tillari 09:00-22:00/ qo'shimcha 17ta til 09:00-18:00 (hafta kunlari) · Tarjima tili : ingliz, xitoy, yapon, rus, vietnam, tay, indoneziya, mongol, filippin, kambodja, arab, nepal, fransuz, ispan, myanma, bangladesh, shrilanka, pokiston, nemis tillari (19ta til)
BBB Koreya (1588-5644)	<ul style="list-style-type: none"> · Ma'sul bo'lim : Notijorat tashkilot(xalq) · Ish vaqti : 3 tomonlama qo'ng'iroq mavjud(ilova) / 24 soat(365kun) · Tarjima tillari : ingliz, xitoy, yapon, rus, vietnam, tay, malayziya, indoneziya, mongol, arab, fransuz, ispan, portugal,shved, polsha, italiyan, nemis, turk, hind, svahili tillari (20ta til)

Yordam olish bo'yicha telefon raqamlar



Jinoyat haqida xabar berish va favqulot raqamlari	
Jinoyat haqida xabar berish (Koreya Milliy Politsiya Agentligi)	112
Maktabdagi zo'ravonlik haqida xabar berish markazi (Koreya Milliy Politsiya Agentligi)	117
Yong'in, tez yordamga muhtoj bemor, favqulodda qutqaruv haqida xabar berish (O't o'chiruv markazi)	119
Xakerlik, spam, shaxsiy ma'lumotlarga tajovuz xavfi haqida xabar berish (KISA)	118
Ayollar uchun favqulodda yordam telefon raqami (Gender tengligi va oila vazirligi)	1366
Danuri xizmat ko'rsatish markazi (Gender tengligi va oila vazirligi)	1577-1366
Kundalik hayot uchun boshqa xizmatlar	
Chet elliklar uchun umumiy ma'lumot markazi (Adliya vazirligi)	1345
Hukumatning fuqarolar shikoyat markazi (Koreya ichki ishlar va xavfsizlik vazirligi)	110
Chet ellik turistlar uchun ma'lumot (Koreya turizm tashkiloti)	1330
Inson huquqlari buzilishi bo'yicha shikoyatlar va maslahatlar (Inson huquqlari bo'yicha milliy qo'mita)	1331
Yuridik maslahat (Koreya yuridik yordam davlat tashkiloti)	132
Bolalar himoyasi bo'yicha ixtisoslashgan tashkilot (Sog'liqni saqlash va farovonlik vazirligi)	129
Yoshlar va o'smirlar uchun kiber-maslahat raqami (Gender tengligi va oila vazirligi)	1388

Koreyada istiqomat qiladigan chet elliklarni qo'llab-quvvatlash islohoti



Koreyada istiqomat qiladigan chet elliklarni qoʻllab-quvvatlash islohoti

01 Politsiya Adliya vazirligi bilan birgalikda jinoyatdan jabr koʻrganlarni qutqarish va mamlakatda istiqomat qiluvchi chet elliklarning inson huquqlarini himoya qilish uchun noqonuniy muhojirlar haqida xabardor qilish majburiyatidan ozod qilish tizimini olib bormoqda.

-“Noqonuniy muhojirlar haqida xabardor qilish majburiyatidan ozod qilish tizimi”- bu noqonuniy yashab kelayotgan chet elliklar jinoyatdan jabr koʻrgan holatida jabr koʻrganlik yoki zarar yetkazganlik haqida politsiyaga xabar bersa deportatsiya xavfi boʻlmagan va yordam olishlari mumkin boʻlgan tizimdir.

· Politsiya tergov jarayoni tugagandan keyin ham noqonuniy muhojir haqida immigratsiya xodimlariga xabar bermaydi.

- Uyushtirilgan jinoyatlar quyidagidan iborat.



Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyatlar

Qotillik, shikast yetkazish-zoʻravonlik, bilmasdan odam oʻldirish, tashlab ketish-tahqirlash, qamash-tutqunlikga tutish, doʻq-poʻpisa, shantaj-aldash orqali boshqaruv, jinsiy zoʻrlash-jinsiy bezorilik, huquqqa toʻsqinlik qilish, oʻgʻirlik-buzgʻunchilik, firibgarlik-qoʻrqitish



Qonunda eslatib oʻtilgan alohida (maxsus) jinoyatlar

Zoʻravonlik uchun jazo berish toʻgʻrisidagi qonun, jinsiy jinoyatlar uchun jazo toʻgʻrisidagi maxsus qonun, yoʻl-transport hodisalar toʻgʻrisidagi maxsus qonun, fohishalik uchun jazo toʻgʻrisidagi maxsus qonun, mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisidagi qonun(46-modda) va shu kabilar mavjud

※ Noqonuniy muhojirlar haqida xabar berish majburiyatidan ozod qiladigan tizim'ga muvofiqlikni va undan foydalanish huquqiga ega ekanligini Adliya vazirligining chet elliklar uchun axborot markazi (1345) orqali tekshirish mumkin. (Ish vaqti: hafta kunlari 09:00-22:00)

